

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmij xalqaro konferensiya materiallari

“HAYRAT UL-ABROR” STRUKTURASIDA MUNOJOTNING O‘RNI

Nigora Sharipova

*Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

E-mail: nigora-sharipova@internet.ru

Annotatsiya: Maqolada “Hayrat ul-abror” dostonidagi to‘rt munojotning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, doston strukturasi tutgan o‘rni, Alisher Navoiy badiiy mahorati xususida so‘z yuritilgan. “Hayrat ul-abror” munojotlarida “Xamsa”ning barcha dostonlari uchun zamin bo‘lgan muhim ijtimoiy, falsafiy, estetik, tasavvufiy-irfoniy qarashlar tasvirlangani yoritilgan.

Kalit so‘zlar: doston, munojot, poetika, talqin, g‘oya, badiiy mahorat.

Аннотация: В статье рассматриваются идейно-художественные особенности четырех мунаджатов в эпосе «Хайрат уль-аброр», их место в структуре эпоса, художественное мастерство Алишера Навои. Мунаджаты “Хайрат уль-аброр” описывают важные социальные, философские, эстетические, мистико-мистические взгляды, лежащие в основе всех эпосов Хамсы.

Ключевые слова: эпос, мунаджат, поэтика, толкование, идея, художественное мастерство.

Abstract: The article examines the ideological and artistic features of the four munajats in the epic "Hairat ul-abror", their place in the structure of the epic, the artistic skill of Alisher Navoi. In the munajats "Hayrat ul-abror" describe important social, philosophical, aesthetic, mystic-mystical views that underlie all the epics of "Hamsa".

Key words: epos, munajat, poetics, interpretation, idea, artistic skill.

Shayx Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a”da hamd va munojot tushunchasiga shunday ta‘rif beradi: “...agar Tengri azza va jallag‘a hamd etsalar, oni tavid derlar. Agar Tengri hazratinda tazarru‘ qilsalar, munojot o‘qurlar”[2.24]. “Hayrat ul-abror”ning ikkinchi bobida Alloh hamdi keltirilgan bo‘lib, unda, asosan, Allohning yakka-yu yagonaligi, butun olamni yaratuvchi qudratli kuch ekanligi, zotiy sifatleri madh etilsa, 3-,4-,5-,6-boblarda keltirilgan to‘rt munojotda Alloh sifatlarining vasfi keltirilishi bilan bir qatorda uning marhamatiga umid bog‘lash, Allohdan madad o‘tinish g‘oyalari yetakchilik qiladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida Navoiy munojotlarining Qur‘oni karim suralari va oyatlari asosidagi talqinlari [7], shoir munojotlarida aks etgan ba‘zi diniy-tasavvufiy qarashlar va ularning tahlili[8] munojot boblarining “Xamsa” semantikasi va struktural tizimidagi poetik vazifasi[6.65-136], Navoiy hamd g‘azallari va “Ruh ul-quds” dostonining poetikasi[3]; “Xamsa” dostonlarida ilohiy oyat va nabaviy hikmatlarning roli hamda ahamiyati[5]; Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti, “Xamsa”, “Lison ut-tayr” dostonlari, shuningdek, boshqa asarlari tarkibidagi munojotlar, “Munojot”

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

asarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari[9]; shoirning hamd va na‘t g‘azallarining turlari; janriy, mavzuiy jihatlari va tasnifoti [11] o‘rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda shoirning hamd va munajat g‘azallari, ba‘zi asarlaridagi munajat boblar; ayrim tadqiqotlarda esa “Xamsa”, xususan, “Hayrat ul-abror” munajotlariga oid ba‘zi mulohazalar ko‘zga tashlanadi.

“Hayrat ul-abror” dostonidan bir hamd va to‘rt munajat o‘rin olgan. Dostonning ikkinchi bobi Xoliq, ya‘ni Alloh hamdiga bag‘ishlangan. Hamd – arabcha, madh, maqto‘v, vasf degani. Barcha yer-u osmon mavjudotlari Allohga o‘z tilida hamd-u sano aytadilar. Qur‘oni Karimning ko‘p oyatlarida tavhidga doir bilimlar mavjud: “Osmonlardagi va yerdagi bor narsalar yolg‘iz Ollohniki” (Qur‘oni karim. “Va-n-Najm” surasi, 31-oyat), yana bir oyat: “Er yuzidagi barcha jonzot foniidir. Buyuklik va karam sohibi bo‘lgan Parvardigoringiz o‘zigina boqiy-mangu qolur” (Qur‘oni karim. “Rahmon” surasi, 26-27-oyat).

“Hayrat ul-abror”ning ikkinchi bobida shoir barcha narsani yaratgan Xoliqni osmon-u quyoshdan tortib har bir zarrani, o‘simliklar va hayvonot olamini, butun koinot-u tabiatni bog‘lab harakatlantirib turishini cheksiz hayrat va yuksak mahorat bilan tasvirlaydi. Shoir jism osmonini sayrgohga aylantirgan, ruh quyoshini yorug‘ qilgan, osmonning firuza gulshanini baland qilib yaratgan Parvardigori olamga hamd aytar ekan, shu bobning o‘zidayoq butun olam Yaratuvchisining eng buyuk inoyati – insonning yaratilishi, unga o‘zga mavjudotlardan farqli tarzda aql taqdim etilishi, ishq, vafo, jafo masalalariga maxsus to‘xtaladi. Xoliq hamdiga bag‘ishlangan ilk bobdayoq muallifning inson haqidagi ma‘rifiy qarashlari o‘rin olishi ilk dostonning markazida Inson va uning ko‘ngli bilan bog‘liq tasvirlar asosiy o‘rin egallagani bilan bevosita bog‘liqdir. Akademik A.Qayumov Navoiy bu muqaddimani iloh nomiga quruq maqto‘v va ta‘rif bilan emas, balki o‘zi va insonni hayajonga solib kelayotgan muhim masalalar bilan boshlaganini aytadi [10.11].

“Hayrat ul-abror”da Navoiy “Xamsa”laridagi kabi avval Haq taologa hamdlar va munajotlar, keyin payg‘ambarga na‘tlar, so‘ngra nabiyning vorislari bo‘lgan piri murshidlarning sifatleri keladi. Birinchi dostonning bunday kompozitsion strukturasi diniy e‘tiqod va tasavvuf tariqati talablari, tamoyillari bilan asoslanadi. Munajotlarda barcha olamlarni yaratgan Haq taoloning tavhidi, yakkaligi, barcha moddiy mavjudotlar, jonli va jonsizlar foni ekanligi, faqat Alloh abadiy, boqiyliqi haqida fikr yuritiladi. Ilk dostonning hamd va munajotlarida Qur‘on oyatlari asosida samoviy mavjudotlarning ajoyib manzaralari tasvirlanadi.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

“Xamsa”da jami sakkizta munajat mavjud bo‘lib, ilk dostonning 3-, 4-,5-,6-boblarida to‘rt munajat keltirilgan, keyingi to‘rt dostonning har birida bittadan munajat mavjud.

“Hayrat ul-abror” munajotlari doston kompozitsiyasida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Kirish hamda Alloh hamdiga bag‘ishlangan ikkinchi bobdan so‘ng na‘t boblardan oldin to‘rt munajat kelishi an‘ana talabi bo‘lish bilan birga Allohning cheksiz qudrati va buyukligini e‘tirof etish, buyuk beshlikning asosiy g‘oyasi – Alloh-Olam-Odam birligi tushunchasining mohiyatini asoslash, shuningdek, turkiy tildagi ilk mukammal “Xamsa”ni turkiy kitobxonga taqdim etish jarayonida Ollohning marhamatiga umid bog‘lash masalalari bilan ham bog‘liqdir.

“Hayrat ul-abror”dagi to‘rt munajatning umumiy hajmi – 167 bayt. Ular orasida uchinchi munajat 50 baytdan iborat bo‘lib, qolganlari hajman jiddiy tafovutga ega emas: birinchi munajat – 42 bayt; ikkinchi munajat – 37 bayt; to‘rtinchi bayt – 38 baytdan tashkil topgan.

Birinchi munajotda shariat va tariqat uchun ham, kalom ilmi ulamolari – mutakallimlar uchun ham asosiy, o‘zak masala bo‘lgan tavhid ilmiga taalluqli Haqning avvaliyati va birligi (xirad, aql anga soniy bilmas) badiiy talqin etiladi. Tavhid falsafasiga ko‘ra, Haq taolo azaliy va abadiy mavjud, oxirda ham faqat O‘zi qoladi. Azal va abadda yakka o‘zi bo‘lgan vaqtlarda hali Quyosh, Oy, kecha va kunduz, zamon va makon ham yo‘q edi. Navoiy birinchi munajotida Tangri taolo hali bu olamni yaratmagan vaqtida yer-u osmon va ulardagi mavjudotlar yo‘qligini aytar ekan, ajoyib san‘atkorligi bilan, hali yo‘q mavjudotlarning naqadar go‘zalligini tasvirlaydi. Hali vaqt va makon ham bo‘lmagan “vaqtda”, hali “husn koshonasida ishq o‘ti parvona kabi kuymagan, gul hali jilvayi noz qilmagan, bulbul anga zamzama chekmagan, ahli vara’ (zohidlar) xirqa kiyishni garov, shart qilmagan vaqtlar edi, o‘z husniga o‘zi mahjub yakka O‘zi, ahad bor edi.

Jilvayi husnungg‘a chu yo‘q erdi had,

Ko‘zgu kerak bo‘ldi anga beadam. [1.14]

Shoir bu munajotda beadam ko‘zgu – to‘qqiz qavat osmon, Quyosh, Oy, yulduzlar, daryolar, tog‘lar, gulzorlar, bog‘lar, umuman, tabiat va koinotning yaratilishini yuksak poetik mahorat bilan tasvirlaydi. Shoirning hamd bobda tasvirlangan ma‘rifiy qarashlari birinchi munajotda yanada rivoj topadi, olamni yaratgan qudratli Tangri taolo unga turfa go‘zalliklarni baxsh etgani, biroq barchasidan eng sharifi qilib insonni yaratgani, inson – Yaratganning eng buyuk in‘omi ekanligi alohida e‘tirof etiladi:

Ganjing aro naqd farovon edi,

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Lek boridin g‘araz inson edi.

Turfa kalomingg‘a dog‘i komil ul,

Sirri nihoningg‘a dog‘i homil ul. [1.15]

“Hayratul-abror”ning mana shu yetakchi g‘oyasi “Xamsa”ning keyingi dostonlari uchun ham asos, leytmotiv vazifasini o‘taydi. Doston boblarida shoirning insonga oid qarashlari o‘z aksini topishi va pog‘onama-pog‘ona teranlik va mukammallik kasb eta borishi ilk dostonda asosiy g‘oya inson bilan bog‘liq ekanligini yanada ayonlashtiradi. Shoir Tangri taolo butun olamni inson tufayli bunyod etganini, Uning yaratilari orasida eng mukammali inson ekanligini, olamni insonga bilim, ilohiy ma‘rifat berish uchun yaratganini, insonga ilm berilishi, avvalo, Tangri ma‘rifatini tanish uchun ekanligini mahorat bilan yoritadi:

Ma‘rifating kim qila olmay sifat,

Qilding ani orifi ul ma‘rifat.

Ilmig‘a har zotni xayl aylading,

Zotig‘a olamni tufayl aylading. [1.15]

Ta‘kidlash joizki, dostonning ilk munajatida Yaratgan nomiga qaratilgan bo‘lsa-da, butun mazmun va maqsadi insonni, inson zotiga mansublikni ulug‘lashdan iboratdir[10.13]

“Hayrat ul-abror”ning ikkinchi munajatida Navoiy olam maxluqoti: zebolari, go‘zalligi; foniy, yo‘qoluvchi (“hodisayi futuri”); olamning tugashi-qiyomat manzaralarini tasvirlaydi. Maqsad Xoliqning qahr-g‘azabi kelsa, nimalar bo‘lishini tasvirlab, olam ahlini ogohlantirishdir: Allohning qahri kelsa, “sovrilibon ko‘k bir etak kul kabi, Qo‘zg‘olib anjum (yulduzlar) bir hovuch gul kabi.” Zuhul, Mushtariy, Bahrom, Zuhra kabi sayyoralar “adam dashtiga mayl qiladilar” – yo‘qoladilar. Navoiy mazkur munajatda talmeh, iyhom, g‘uluv san‘atlarini qo‘llab, Qiyomat kunini tasvirlashda mislsiz san‘atkorligini ko‘rsatadi, shoirning ijodiy tasavvuri boyligi, cheksizligi ko‘rinadi. Bu manzaralar tasvirida Navoiy Qur‘on oyatlariga asoslanadi.

“Hayrat ul-abror”ning uchinchi munajatida Haq taolo yaratgan olam-falakiyotdan to to‘rt unsurgacha koni-yu hayvoni, jonivorlari javohir kabi qimmatlidir, deydi. Hozirgi til bilan aytganda, ekologiyaning sofliqini saqlash, shu qatorda insonlar ma‘naviyati musaffoligini asrash vojibligi haqida so‘z boradi. Navoiy fikricha, Haq taolo odamlarni jamiyat bo‘lib yashashi uchun bir-biriga bog‘liq qilib qo‘ygan. Insonlar bir-birlarini qadrlashi zarur.

Barchasini garchi latif aylading,

Barchadin insonni sharif aylading. [1.19]

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

“Hayratul-abror”ning to‘rtinchi munojoti Tangri karami kengligi, inoyati cheksizligi, Allohning qudrati oldida gunoh tog‘i bir dona pat yoki somon parchadek ekanligi tasvirlanadi:

*Jumla jahon ahli xato qilsalar,
Jurm bilan noma qaro qilsalar.
Nomani oq aylamak oson sanga,
Kim, yo‘q o‘shul amrda nuqson sanga. [1.23]*

Quyosh nuri bilan tun zulmatini yoritishining o‘zi ham Haq taoloning karami kengligidandir. Navoiy quyida ba‘zi zohidlarni tanqid qiladi:

*Zuhd ila qavmeki vara‘ qildilar,
Qilg‘on uchun muzd tama‘ qildilar.
Har amalekim, kishi xayr aylagay,
Komi bu kim, ravzada sayr aylagay. [1.24]*

To‘rtinchi munojotdagi bu g‘oya doston davomida Robiyayi Adaviya, Abdulloh Ansoriy haqidagi boblarda muhim o‘rin egallaydi. Munojotda ham shu g‘oyaga – Tangriga tamasiz ibodat qilish g‘oyasiga katta e‘tibor beradi. Aslida bu g‘oya shariatda unchalik ma‘qullanmaydi. Chunki Qur‘on oyatlarida gunohlardan saqlanib, vara‘-parhez bilan, yaxshi xayrli ish-amallar bilan yashovchi ko‘ngli pok insonlarga jannat bog‘lari, ravzalari ajr-mukofot berilishi ko‘p marta takrorlanadi. Navoiy to‘rtinchi munojotda aytgan g‘oya esa tariqat ahliga, aziz-avliyolarga, abrorlarga taalluqlidir.

“Hayrat-ul abror” dostonidagi munojotlarda shoir qarashlari Alloh-Olam-Odam birligi doirasida bayon etilib, Allohning cheksiz qudrati tufayli Olamning yaratilishi, turfa go‘zalliklari hamda uning jami ajoyibotlari orasida eng buyugi va mukammali Odam ekanligi, aslida butun olam inson tufayli yaratilgani, uning xatti-harakatlari, odamiyligi, ma‘rifati dunyoni me‘yorga solib turuvchi cheksiz kuch ekanligi shu munojotlarning asosiy g‘oyasi sanaladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. TAT. O‘n jildlik. Oltinchi jild. T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
2. Ahmad Taroziy. Funun ul-balog‘a. Nashrga tayyorlovchi: A.Hayitmetov. – T.:Xazina, 1996.
3. Bekova N. “Alisher Navoiyning hamd g‘azallari va “Ruh ul-quds” qasidasining badiiyati”. Fil.f.n.diss.avtoref. – Toshkent,2003.
4. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. –B. Buxoro, 1994.
5. Davlatov O. Alisher Navoiy she‘riyatida Qur‘on oyatlari va hadislarining badiiy talqini. Fil.fan.buyicha fal.dok.diss.avtoreferati. –Samarqand, 2017.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

6. Jo‘raqulov U. Epik kompozitsiya xronotopi: debocha poetikasi//Alisher Navoiy “Xamsa”sida xronotop poetikasi. Fil.fan.dok.diss. – B.65-136.
7. Karomatov H. O‘zbek adabiyotida Qur’on mavzulari. Fil.fan.dok.diss.avto-ref. T., 1993.
8. Muhiddinov M. Alisher Navoiy va uning salaflari ijodida inson konsepsiyasi. Fil.fan.dok.diss. – T., 1995.
9. Erkaboyeva N. Alisher Navoiy ijodida munajat. Fil.fan.nom.diss.avto-ref. Toshkent, 2008.
10. Qayumov A. “Hayrat ul-abror” talqini // Asarlar. 1-jild, 1-kitob. T.:”MUMTOZ SO‘Z”, 2008.
11. G‘aforova Z. Alisher Navoiy hamd va na‘t g‘azallarining g‘oyaviy-badiiy tahlili. Samarqand, 2018.